



CAO TOMONIDAN TAYYORLANGAN BAHOLASH HISOBOTI

IFC-ning Indorama Kokand, Hamkor Equity/SL, Hamkorbank RIs, Hamkorbank SL, GTFP Hamkor, UZ FM (#38266, 27615, 30893, 32024, 35062, 36170, 33596, 30657, 569389) infratuzilma loyihalari bilan bog'liq muammoli masalalar haqida.

Mart 2018.

*Xalqaro moliya korporatsiyasi va
Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi uchun
Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi / Ombudsman idorasi
www.cao-ombudsman.org*

CAO haqida umumiy ma'lumot

Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi/ Ombudsman idorasi Jahon banki guruhidagi xususiy sektor bilan ishlaydigan, - Xalqaro moliya korporatsiyasini (IFC) va Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligini (MIGA), - ijtimoiy javobgarlik bilan muvofiqligini ta'minlaydigan mustaqil tashkilotdir. CAO vakolathonasi to'g'ridan-to'g'ri Jahon banki guruhining Prezidentiga hisobot beradi va uning vazifasi IFC/MIGA tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihalari ta'sir ko'rsatadigan shaxslarning shikoyatlariga nisbatan adolatli, ob'ektiv va konstruktiv ishlarni amalga oshirish va ushbu loyihalarning ijtimoiy va ekologik natijalarini yaxshilashga yordam berishdan iborat.

Batafsil ma'lumotni CAO veb-saytida topishingiz mumkin: www.cao-ombudsman.org.

MAZMUN

MAZMUN.....	3
QISQARTMALAR RO'YXATI.....	4
1. KIRISH	5
2. MANBA MA'LUMOTLARI	5
2.1. Loyihalar	5
2.1.1. IKT bilan bo'lgan IFC loyihasi	5
2.1.2. Hamkorbank bilan bo'lgan IFC loyihasi.....	5
2.2. Shikoyat	6
3. BAHOLASHNING HULOSASI	6
3.1. Baholash metodologiyasi	7
3.2. Muammoli savollarning qisqacha tavsifi	8
3.2.1. Shikoyatchilarning nuqtai nazari	8
3.2.2. IFC mijozlarining nuqtai nazari.....	9
3.3. Muloqot uchun kun tartibi	10
4. KEYINGI BOSQICHLAR.....	11
ILOVA A. CAODA SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH JARAYONI.....	12

QISQARTMALAR RO'YXATI

CAO	Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi/ Ombudsman idorasi
ESAP	Ekologik va ijtimoiy tadbirlar rejasi
GTFP	Savdoni moliyalashtirish bo'yicha global dasturi
IFC	Xalqaro moliya korporatsiyasi
IKT	Indorama Kokand Textile (Indorama Qo'qon Tekstil)
ILO	Xalqaro mehnat tashkiloti
ILRF	Mehnat huquqlari bo'yicha xalqaro forum
MIGA	Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi
MSME	Mikro-, kichik va o'rta korxonalar
NGO	Nodavlat notijorat tashkilot (NNT)
UGF	O'zbekiston-Germaniya inson huquqlari forumi

1. KIRISH

2016 yilning iyun oyida CAO Xalqaro moliya korporatsiyasining (IFC) O'zbekistondagi loyihalari bilan bog'liq shikoyatni oldi. CAO, shikoyatni 2016 yilning avgust oyida IFCning ikki mijoziga nisbatan baholash uchun ma'kul deb topdi: Indorama Kokand Textile (IKT), paxta iplarini ishlab chiqaruvchi korxonaga IFCdan to'qimachilik fabrikasini kengaytirish uchun moliyalashtirilgan; bosh boshqarmasi O'zbekistonning Andijon shahrida joylashgan Hamkorbank, litsenziyalik tijorat banki bo'lib, IFC bilan yettita faol loyihalari mavjud. Shikoyat O'zbekiston inson huquqlari kuzatuvchilari (monitorlari) va paxta dalalarida majburiy mehnatda tahminiy jabrlanuvchilari bo'lganlar nomidan nodavlat notijorat tashkilotlari koalitsiyasi (NNT) tomonidan taqdim etilgan ("Shikoyatchilar"). Shikoyatda, IKTning ta'minot zanjirida majburiy mehnat qo'llanishi tashvish uyg'otishi haqida ma'lum qilinadi. Hamkorbankka kelsak, shikoyatchilarning ta'kidlashlariga ko'ra Hamkorbank "majburiy moliyaviy tizimda ishtirok etib, majburiy mehnatni qo'llashga qarshi va mustaqil kuzatuvchilarga shu bilan bog'liq bo'lgan xurujlarni oldini olishda etarli darajadagi choralarni amalga oshirmayotgani" bo'yicha dalillar mavjud. Shikoyatda yana ta'kidlanishicha, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan Hamkorbankka kiritilgan sarmoyalar paxta yig'ish tizimidagi majburiy mehnatdan foydalanadigan yoki undan foyda oladigan kompaniyalar tomonidan moliyalashtirilishining ehtimoli bo'lib, IFC o'zining ehtiyotkorlik va monitoring qilish bo'yicha olgan majburiyatlarini bajarmadi. Hamkorbank turli kreditlar va mijozlar orqali foyda ko'radi. CAO shikoyatni 2016 yil avgustida ma'kul topdi va shikoyatda ko'tarilgan masalalarni baholashni boshladi. Baholash vaqtida, Shikoyatchilar va IFC mijozlari CAO tomonidan osonlashtirilgan ixtieriy nizolarni hal qilish jarayoniga kirishishga kelishdilar. Ushbu baholash hisoboti loyihaning tavsifi, shikoyat, baholash metodologiyasi va keyingi bosqichlarni o'z ichiga olgan baholash jarayoniga umumiy tasnif beradi.

2. MANBA MA'LUMOTLARI

2.1. Loyihalar

2.1.1. IKT bilan bo'lgan IFC loyihasi

IFC O'zbekistonning Farg'ona vodiysida joylashgan to'qimachilik korxonasini kengaytirishni moliyalash uchun paxta ip ishlab chiqaruvchi IKT bilan faol loyihaga ega.

IFCning investitsiyalari IKTga - 40 mln. AQSh dollarigacha bo'lgan birinchi liniya kreditlarini ko'zda tutadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, investitsiyalarning maqsadi - IKTning O'zbekistondagi salohiyatini yanada kengaytirish, mahalliy paxta tolasi eksportini ko'paytirish va mahalliy to'qimachilik va trikotaj sanoati uchun sifatli xom ashyo mavjudligini ta'minlash, bu esa mahalliy to'qimachilik sanoati va sanoatdagi bandlik darajasini oshirish.

IFC loyihani amalga oshirish yakunlari bo'yicha IKT O'zbekistonning paxta tolasi bo'yicha eng yirik ichki iste'molchisi bo'lishini ko'rsatadi, uning yillik paxta tolasini iste'moli 38 ming tonnani yiliga 50 ming tonnagacha oshiradi. Natijada IKT mamlakatning 1 million tonna paxta tolasining 5 foizini iste'mol qiladi.

Loyiha 2015 yil 17 dekabrda Direktorlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan va to'liq miqdorda to'lov 2016 yil 17 may kuni bo'lib o'tdi.

2.1.2. Hamkorbank bilan bo'lgan IFC loyihasi

IFC aksiyadorlik kapital va kredit investitsiyalari va Savdoni moliyalashtirish bo'yicha Global Dasturi (GTFP) bilan hamkorlikda Hamkorbank bilan yettita faol loyihaga ega.

IFC tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, "Hamkorbank" aslida Toshkent shahrining Farg'ona vodiysida joylashgan mintaqaviy bank bo'lib shakllantirildi va kichik va o'rta biznes (KO'K) kreditlari, mikro kreditlar, iste'mol kreditlari va lizing mahsulotlarini taklif etuvchi umumdavlat moliyaviy institutiga aylantirildi. Uning aksiyalari O'zbekiston fond birjasida sotiladi. Aksiyadorlik investitsiyasi bankning moliyalashtirish bazasini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda mikrofirmalar va kichik tadbirkorlarni moliyalashtirishni kengaytirish uchun sarflanadi. Shuningdek, bankning strategiyasini qo'llab-quvvatlash va uning kengayishiga ko'maklashish maqsad qilingan.

IFCning ta'kidlashicha, kreditlar "Hamkorbank" ning IFCning moliyaviy bozorlar strategiyasiga moslashgan uzoq hududlarga qaratilgan, mikro, kichik va o'rta korxonalar (MSME) uchun kredit dasturini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Nihoyat, IFC ning Savdoni moliyalashtirish bo'yicha global dasturi (GTFP) Hamkorbankning tanlangan eksport-import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

2.2. Shikoyat¹

CAOga shikoyatni Xalqaro mehnat huquqlari forumi (ILRF), O'zbekiston-Germaniya inson huquqlari bo'yicha forumi (UGF), "Xyuman Rayts Votch" va "Paxta kompaniyasi", to'rt nafar Shikoyatchilar nomidan taqdim etildi. Faoliyatlari paxta yig'im-terimi vaqtida majburiy mehnat va bolalar mehnatiga qarshi kurashga qaratilgan uch nafar O'zbekistonlik huquq himoyachilari; va bir necha marta paxta terimiga majburlangalikda gumon qilinayotgan bitta ishchi. Boshqa olti nafar O'zbekistonlik huquq himoyachilari o'zlarining nomlarini baholash bosqichida shikoyatga rasmiy ravishda kiritishlarini so'rab, jami o'n kishini tashkil etdi. Maxfiylikni talab qilmagan to'qqiz nafar shikoyatchilar quyidagilardir:

1. Elena Urlaeva, O'zbekiston huquq himoyachilari alyansi, Toshkentdan;
2. Dmitriy Tixonov, surgunda yurgan huquq himoyachisi;
3. O'ktam Paradaev², Jizzaxlik huquq himoyachisi
4. O'tkir Paradaev, paxta yig'im-terimini nazorat qilishda yordam bergan Jizzaxlik
5. Azimbay Atanizov, Nukus, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining huquq himoyachisi;
6. Maloxat Eshonqulova, Samarqanglik huquq himoyachisi va jurnalist; shuningdek
7. Arislanbay Oteпов, Nukus, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining huquq himoyachisi;
8. Xaytbay Yaqubov, Xiva shahridagi "Najot" huquqni himoya qilish tashkiloti;
9. Surat Ikramov, Toshkentdan O'zbekiston mustaqil huquq himoyachilari tashabbus guruhi raisi.

3. BAHOLAS BO'YICHA HULOSA

CAO bahosining maqsadi shikoyatchilar tomonidan ilgari surilgan masalalarni va xavotirlarni aniqlashtirish, boshqa manfaatdor tomonlarning vaziyatni qanday ko'rayotgani haqida ma'lumot to'plash va qaysi jarayonni - nizolarni hal qilish yoki muvofiqligini aniqlash uchun -

¹ To'liq 21-betlik shikoyat maktubi uchun, iltimos, qarang: http://www.cao-ombudsman.org/publications/documents/Cao_submission_public_version.pdf

² O'ktam Paradaev CAOdan avval nomini sir saqlashni so'ragan va keyinchalik nomini oshkor qilish uchun ijozat bergan dastlabki shikoyatning egasi.

shikoyat qiluvchilar va IFC shikoyatni ko'rib chiqishda qaysi jarayonni – nizolarni hal qilish yoki audit (faoliyat standartlariga rioya qilishni tekshirish bo'icha) qo'llashni istashlarini aniqlash. CAO shikoyatni ko'rib chiqishda baholash uchun ma'lumot to'plamaydi.

3.1. Baholash metodologiyasi

CAO tomonidan shikoyatni baholash quyidagilar bo'lgan edi:

- shikoyatchilar bilan ikki tomonlama va maxfiy uchrashuvlar;
- shikoyatni qo'llab-quvvatlovchi shikoyat qiluvchi va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) tomonidan CAOga jo'natilgan 17 nafar boshqa o'zbek huquq himoyachilari, davlat xizmatchilari va paxta terimchilar bilan uchrashuvlar;
- Shikoyatchilarni qo'llab-quvvatlovchi NNT vakillari bilan uchrashuvlar;
- IKT va Hamkorbank uchun IFCning loyiha guruhlarini bilan uchrashuvlar;
- Toshkent va Vashington shaharlarida Jahon banki vakillari bilan uchrashuvlar;
- Qo'qondagi IKT to'qimachilik fabrikasiga tashrif, shuningdek, telefon orqali va Toshkentda shaxsan IKT rahbariyati bilan uchrashuvlar;
- "Hamkorbank"ning Andijondagi bosh boshkarmasiga ikki marta tashrif;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari va Bolalar mehnati va majburiy mehnat masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashi raisi Tanzila Narbaeva va Mehnat vaziri Aziz Abduqaxarovich Abduxakimov bilan uchrashuvlar;
- "O'zpxatasanoateksport", "O'zbekengilsanoat" va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi vakillari bilan uchrashuvlar;
- Farg'ona va Buxoroda mahalliy hokimiyat vakillari bilan uchrashuvlar;
- O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rahbariyati bilan uchrashuvlar;
- "Jondor" paxta tozalash zavodiga ekskursiya va Farg'ona viloyatidagi fermer bilan uchrashuvlar;
- Toshkentda Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) vakillari bilan uchrashuvlar;
- Toshkentdagi AQSh Elchixonasining vakili bilan uchrashuv;
- Hamkorbank bilan birgalikda loyihalarga ega bo'lgan Germaniya investitsiya va taraqqiyot korporatsiyasi (DEG) va Gollandiya rivojlanish moliyalashtirish kompaniyasi (FMO) loyiha guruhlarini bilan telefon orqali qo'ng'iroqlar; va
- "Barqaror paxta ta'minot zanjirini rivojlantirish" loyihasi ustida ishlaydigan IFC "Konsalting xizmatlari" guruhi bilan telefon qo'ng'iroqlari.

CAO o'z shaxsini yashirin saqlashni so'ragan dastlabki to'rtta ariza beruvchidan biri bilan bog'lana olmadi, ammo u bilan bog'lanish uchun sa'y-harakatlarni davom ettirmoqda.

CAO, bu ish bo'yicha baholash davrini asosan, CAO bilan gaplashishni istagan va shuningdek, aloqa bilan bog'liq muammolarni hal qilishni so'rab murojaat qilganlar va

boshqalarning shaxsini himoya qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha choralar tufayli oshdi. Shikoyatchilar, shuningdek, qanday qilib harakat qilishni xohlashlari borasida o'lchovli qaror qabul qilish uchun CAO mandatlarini (vakolatlar) va jarayonlarini tushunish uchun etarli vaqt kerak bo'ldi.

3.2. Muammoli savollarning qisqacha tavsifi

Ushbu bo'lim turli manfaatdor tomonlar guruhlaridan CAO bilan olib borilgan muzokaralar chog'ida keltirilgan masalalarni umumlashtiradi.

3.2.1. Shikoyatchilarning nuqtai nazarini

CAO bilan uchrashuvlarda Shikoyatkorlar asosan dastlabki shikoyatda keltirilgan masalalarni takrorladilar va 2016 va 2017 yillardagi paxta ekish va yig'im mavsumlaridan qo'shimcha ma'lumotlarni va yangilanishlarni taqdim etdilar.

Ba'zi huquq himoyachilari o'zlari va ularning oila a'zolari paxta sohasida majburiy mehnat bilan bog'liq faollik va monitoring ishlari tufayli tahdid qilingan yoki hatto jismonan jazolangan deb da'vo qilishadi. Ushbu hodisalarning ba'zilari dastlabki shikoyatda hujjatlashtirilgan va shikoyatchilar, CAO tomonidan baholash jarayonida sodir bo'lgan hodisalar ularning faolligi va monitoring faoliyati tufayli sodir bo'lgan deb hisoblashadi. 2017 yilning 1 martida CAOning O'zbekistonga ilk bor tashrifi davomida Elena Urlaeva Toshkent shahridagi psixiatriya shifoxonasiga majburiy ravishda topshirildi va 2017 yil 23-martgacha shu erda bo'ldi. 2017 yilning sentyabrda Urlaeva va Malohat Eshonqulova mahalliy militsiya va hukumat amaldorlari Yaipan shahrida mobil telefonlari, yon daftarlari va kameralari musodara qilingan. 2017 yilning oktyabr oyi boshlarida Urlaevaning aytishicha, Bo'ka tumani Ko'k-Orol qishlog'ida mahalliy militsiya va ichki ishlar boshqarmasi tomonidan ikki soat davomida qo'lga olinib, so'roqqa tutilgan va keyinchalik ozod qilingan. Urlaeva va Eshonqulova 2017 yil 15 oktyabr kuni Pastdarg'om tumanidagi Juma shahrida mahalliy militsiya tomonidan ushlangani va ularning raqamli yozuvlari va yozuvlari yo'q qilinganini xabar qildi.

Dastlabki shikoyatda, Dmitriy Tixonovning paxta sektoriga aloqador inson huquqlari borasidagi faoliyatlari uchun ta'qib va qiynoqlarga duchor bo'lganidan keyin O'zbekistondan qochganligi ham aytilgan. Shikoyatchilar, hozirda surgunda yashovchi Dmitriyga O'zbekistonga qaytib kelishi uchun o'z xohishlarini bildirishdi.

O'ktam va O'tkir Paradaevlar CAO ga bergan ma'lumotlariga ko'ra, ularning ilgari hibsga olinishi va o'zaro bog'liq bo'lmagan ayblovlar bo'yicha jazo qarorlari aslida ularni paxta terim ishlari monitoring qilishlariga halaqit qilish maqsadida amalga oshirilgan edi. O'ktamning so'zlariga ko'ra, 2015 yil noyabr va dekabr oylarida unga nisbatan jismoniy tazyiq o'tkazishgan va jazo muddati davomida unga hibsdagilar uchun belgilangan standart me'yordan sezilarli darajada kam bo'lgan oziq-ovqat va suv bilan ta'minlangan. Uning aytishicha, unga 2019 yilgacha bo'lgan sinov muddati belgilanib, Jizzax shahar ichki ishlar bo'limida oyiga ikki marta ro'yxatdan o'tishi shart.

Dastlabki shikoyatda ta'kidlanganidek, IFC, paxta ta'minot zanjirida bolalar va majburiy mehnatga nisbatan IKT investitsiyalarida o'z majburiyatlarini bajarmagan. Shuningdek, IKT mehnat va ish sharoitlari bo'yicha IFCning Ishlash standarti 2 (PS2) talablarini oqilona muddatda yoki umuman PS2 27 va 29-bandlariga asosan javob berishi haqida hech qanday dalil yo'qligini ta'kidlashadi.

Yuqorida qayd etilganidek, CAO bir qancha o'zbek huquq himoyachilari, paxta terimchilar va sakkizta rasmiy shikoyatchilarning tashqari boshqa jabrlanganlar bilan uchrashgan. Paxta terimidan voz kechgan davlat xizmatchilari uchun ular o'rnini bosuvchi yig'uvchilar uchun pul

to'lashlari kerakligini yoki ular ishdan ayrilish bilan tahdid qilishlari va/yoki suv, gaz va elektr kabi maishiy xizmatlari berilishi to'xtab qolishi mumkinligi bilan tahdid qilishadi, deb da'vo qiladilar. Universitet talabalari haydali bilan yoki past ballar bilan tahdid qilinganligi haqida xabar berishadi. Paxta terimidan bosh tortganlarning va/yoki majburiy mehnat dalillarini to'plashishga harakat qilganlar militsiya yoki xavfsizlik xizmati tomonidan hibsga olinib, tahdid qilingan va ularning oila a'zolariga tahdid qilganliklarini xabar qilganlar.

Ayrim shaxslar CAOga o'zlarining va / yoki ularning oila a'zolari ixtiyoriy ravishda qo'shimcha daromad olish uchun paxta terimiga kelishlarini ma'lum qilishdi. Ushbu shaxslarning muammolari paxta terimchilar uchun kam yoki xavfli mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan.

Shikoyatchilar, prezident Mirziyoevning saylanganidan buyon O'zbekistonda umumiy siyosiy vaziyat o'zgarib borayotganini ta'kidladi. Shikoyatchilar dastlab IKTning kreditlari va Xamkorbankga kredit va kapitalni investitsiyalash bo'yicha dastlabki shikoyat maktubida muvofiqlikni tekshirishni so'radilar. Ammo, baholash davomida, shikoyatchilar CAOga shikoyat masalalarini hal qilish uchun CAOning nizolarni hal qilish funksiyasi orqali IFC, Hamkorbank va IKT bilan muloqot qilishni afzal ko'rishlari to'g'risida xabar berdilar.

3.2.2. IFC mijozlarining nuktai nazari

IKT

IKT, CAOga IFCning Ishlash standartlariga (PS) rioya qilishni talab qilib, ular majburiy mehnat yoki bolalar mehnatidan olinadigan paxta manbasini sotib olish xavfini kamaytirish choralarini ko'rdi. IKTning dastlabki majburiyatlaridan biri faqatgina XMTning O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi, suv va ta'lim sohasidagi Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarining Uchinchi tomonining monitoringiga kiradigan hududlardan paxtani ta'minlash edi.³ Keyinchalik IFC shuningdek, majburiy mehnat va bolalar mehnatidan foydalanish xavfi yuqori bo'lgan "qizil" hududlar deb hisoblaydigan tumanlarni aniqlaydigan xavf ko'rsatkichini yaratdi. IKT, bu "qizil" rangli hududlardan paxta sotib olmaslikka vada berdi.

IKT ma'lumotlariga ko'ra, u qayta ishlangan paxta tolasini qaysi paxta tozalash zavodlaridan paxtani sotib olishini kuzata oladi, chunki har bir paxta toyi har bir paxta tozalash zavodiga mos keladigan raqam bilan belgilanadi. Paxta tozalash zavodlarining har biri ma'lum bir hududdan paxtaning manbai bo'lib, bu har qanday taqiqlangan joylarning paxtasini IKT sotib oladigan paxta tozalash zavodlariga yuborilmasligini bilishga imkon beradi. IKT taqiqlangan paxta tozalash zavodlarining raqamlarini barcha xodimlariga eslatib turish uchun o'z xonalari ichiga belgilarni o'rnatdi.

IKT majburiy mehnat va bolalar mehnatiga oid siyosatni ishlab chiqdi, uning nusxasi CAOga taqdim etildi. Bundan tashqari, IKT, CAOga, IKTning ta'minot zanjirida majburiy yoki bolalar mehnatidan dalolat beruvchi har qanday shaxs bilan suhbatlashish uchun ochiq, shuning uchun tegishli choralar ko'rish mumkinligini aytdi.

IKT o'z ish tajribasini boshqa mahalliy firmalar bilan doimo muntazam ravishda davlat tomonidan uyushtirilgan davriy biznes forumlarda, xususan, Korxonalar Ijtimoiy Mas'uliyat Amaliyoti va eng yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti - yuqori sifatli paxtadan yigirilgan ipni ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ajratib turishini ta'kidladi. Ularning maqsadi o'zbek paxtasining umumiy sifati va obro'sini oshirishda ishtirok etishdir. Shuningdek, Jahon Banki

³ ILOning Uchinchi tomon monitoringi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun, iltimos, qarang http://www.ilo.org/ipec/Informationresources/WCMS_543130/lang--en/index.htm

va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ko'magida O'zbekistonda majburiy mehnat to'g'risidagi har qanday dolzarb masalalarni hal qilish mumkinligiga ishonishadi.

Hamkorbank

Hamorbank, atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimiga (ESMS) ega ekanligini va o'rtacha xavf mijozlariga yiliga bir marta va yuqori talabga javob beruvchi mijozlarga yiliga ikki marta muvofiqlikni ta'minlash uchun kuzatuv-monitoring o'tkazadi. Hamkorbank ta'kidlashiga ko'ra: 2017 yilda o'z Ijroiya Kengashi barcha filiallariga maktub yubordi, uning bir nusxasi CAOga ham yuborildi. Bu maktubda filial xodimlarining paxta yig'ish bo'yicha majburiy mehnat taqiqlanishini taqiqlab qo'yganligini ko'rsatib turibdi va qayd etilganidek, "Hamkorbank" xodimlarining majburiy mehnatiga oid dalillar aniqlansa filial rahbarlariga qarshi qat'iy intizomiy choralar qo'llaniladi.

"Hamkorbank" qishloq xo'jaligi fermerlarini moliyalashtiradi, ularning asosiy faoliyati fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Bu fermerlarning ba'zilar paxta etishtiradigan erning kichik qismiga ega bo'lishi mumkin. Biroq, "Hamkorbank" muntazam monitoring o'tkazganda, taqdim etilgan kredit-mablag paxta uchun ishlatilmasligini kafolatlaydi. "Hamkorbank" ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi fermerlari kredit portfelining ulushi 0,15 foizni tashkil etadi, kredit portfelining 7 foizi esa to'qimachilik kompaniyalaridan iborat.

Umuman, "Hamkorbank" yangi hukumat qarorlari va shikoyatlar uchun tashkil etilgan vazirlik va prezidentlik portallari mavjudligini ko'rsatib, paxta sektoridagi ijobiy o'zgarishlar kutilishini ta'kidlaydi. "Hamkorbank", shuningdek, hozirgi hukumat qishloq xo'jaligi erlarini diversifikatsiya qilish va paxta yig'im-terimini mexanizatsiyalashni rejalashtirmoqda, deb hisoblaydi.

Hamkorbank CAOning nizolarni hal qilish funktsiyasi bo'yicha Shikoyatchilar bilan muloqot qilish uchun ochiq. Shuningdek, ular paxta va to'qimachilik sanoati sohasidagi o'z mijozlarini tegishli vaqtda suhbatlarda qatnashish uchun taklif etishga qiziqish bildirdi.

3.3. Muloqot uchun kun tartibi

CAO bilan uchrashuvlar chog'ida manfaatdor tomonlar o'zlarining asosiy maqsadlari va manfaatlarini bayon qildilar, ularning aksariyati barcha taraf tomonidan fikr almashilindi. Mahalliy manfaatdor tomonlarning kengroq maqsadlariga erishish uchun CAOning qobiliyati va mandatlaridan (vakolatlaridan) tashqarida bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, ushbu maqsadlarni tushunish va mahalliy tomonlarga shikoyatni hal qilish uchun o'zaro foydali variantlarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Quyida, tomonlarning asosiy maqsadlari va manfaatlarining CAO guruhining xulosasi keltirilgan:

- O'zbekiston paxta sektorida bolalar va majburiy mehnat xavfini bartaraf etish;
- O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;
- O'zbekiston hukumati, IFC, IFC mijozlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va inson huquqlari tashkilotlari o'rtasida o'zaro manfaatli masalalarni muhokama qilish uchun konstruktiv hamkorlikni rag'batlantirish;
- IFC loyihalarida IFC Ekologik va Ijtimoiy Ishlash standartlarini qo'llash va amalga oshirish; va
- O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborini oshirish.

CAOning bahosi doirasida qabul qilingan dastlabki shikoyat va boshqa manfaatdor tomonlar muhokamasi asosida, CAOning nizolarni hal qilish funktsiyasi bilan javob berish kerak bo'lgan asosiy savollar quyidagilardir:

1. IFCning "IKT" va "Hamkorbank" loyihalarida va ularga tegishli ta'minot zanjirlarida majburiy mehnatni yo'qligini namoyish qilish va ta'minlash uchun tegishli tomonlar qanday qilib birgalikda ishlashlari mumkin?
2. IKTning ta'minot zanjiriga va "Hamkorbank"ning atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy boshqaruv tizimiga e'tibor qaratish, paxta dalalarida ishchilarning mehnat sharoitlari etarli emasligini aniqlash, monitoring qilinish va yaxshilash mumkinmi?
3. Tegishli tomonlar majburiy mehnat va bolalar mehnati uchun paxta monitoringini takomillashtirish bo'yicha qanday muhokamada ishtirok etishlari mumkin?

Baholash jarayonida shikoyatchilar nizolarni hal qilish jarayonida ishtirok etish uchun qo'shimcha huquq himoyachilari va majburiy mehnat jabrlanuvchilarini jalb qilish imkoniyatlarini muhokama qildilar.

Ko'pgina manfaatdor tomonlar shikoyat masalalarini hal qilish va O'zbekistonda paxtachilik sohasini yaxshilash bo'yicha turli fikr va takliflarni taqdim etdilar. Nizolarni hal qilish jarayonining bir qismi sifatida CAO tomonlar bilan konstruktiv muloqot olib borish, fikr va takliflarini bir-birlari bilan bo'lishish va shikoyatni hal qilish uchun o'zaro foydali variantlarni ishlab chiqish uchun hamkorlik qilishni kutmoqda.

4. KEYINGI BOSQICHLAR

Shikoyatchilar, IKT va Hamkorbank CAOning "Nizoni hal qilish" funktsiyasi tomonidan to'plangan ixtiyoriy muloqot jarayoniga jalb etishga kelishdilar. CAO bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi, shu jumladan tomonlarga muloqotga tayyorgarlik ko'rish, asosiy qoidalarni kelishib olish va birgalikda shikoyatda keltirilgan masalalarni echish va ushbu baholash hisobotida umumlashtirilgan masalalarni hal etishga yordam berish.

ILOVA A. CAOda SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH JARAYONI

Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi/ Ombudsman idorasi Jahon banki guruhidagi xususiy sektor bilan ishlaydigan, - Xalqaro moliya korporatsiyasini (IFC) va Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligini (MIGA), - ijtimoiy javobgarlik bilan muvofiqligini ta'minlaydigan mustaqil tashkilotdir. CAO vakolathonasi to'g'ridan-to'g'ri Jahon banki guruhining Prezidentiga hisobot beradi va uning vazifasi IFC/MIGA tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihalari ta'sir ko'rsatadigan shaxslarning shikoyatlariga nisbatan adolatli, ob'ektiv va konstruktiv ishlarni amalga oshirish va ushbu loyihalarning ijtimoiy va ekologik natijalarini yaxshilashga yordam berishdan iborat.

Dastlabki baholash CAOning nizolarni hal qilish funksiyasi bilan amalga oshiriladi. CAO baholashining maqsadi quyidagilar: (1) shikoyatchi(lar)ning savollariga va tashvishlariga aniqlik kiritish; (2) boshqa manfaatdor tomonlarning vaziyatni qanday ko'rayotgani to'g'risida ma'lumot to'plash; va (3) manfaatdor tomonlarga mavjud bo'lgan resurslarni tushunishlariga yordam berish va ular CAOning nizolarni hal qilish funksiyasi orqali birgalikda hal qilishni xohlaydilar yoki yo'qmi, yoki ishni CAOning muvofiqligi funksiyasi (audit) bilan ko'rib chiqilishi kerakmi-yo'qligini aniqlash.

Ushbu hujjat CAO guruhi tomonidan eshitiladigan fikrlarning dastlabki xulosasidir va taraflarning nizolarni hal qilishga moslashuv jarayonini tanlab olishiga qarab, keyingi bosqichlar tushuntiriladi.

Ushbu hisobot shikoyatning asoslari haqida hech qanday qaror chiqarmaydi.

CAO Ishlash standartlari bo'yicha amaliy ko'rsatmalarga⁴ asosan shikoyat ko'rib chiqish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1 - bosqich: Shikoyatni qabul qilinganligini **tasdiqlash**.
- 2 - bosqich: **Muvofiqlik:** Shikoyatni muvofiqlik mezonlari bo'yicha tekshirish va uning CAOning keyingi baholash uchun belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish (15 ish kuni ichida).
- 3 - bosqich: **CAOning baholash jarayoni:** Muammoni baholash va shikoyatni qondirish uchun eng yaxshi variantni belgilashda nizolashayotgan tomonlariga yordam berish: nizolarni hal qilish funksiyasi orqali, hamkorlik tamoyillarini qo'llash orqali yoki IFC/MIGA Ekologik va Ijtimoiy Ishlash standartlariga muvofiqlikni tekshirish uchun ishni CAO audit bo'limiga yuborish. CAO ishni 120 ish kuni ichida baholaydi.
- 4 - bosqich: **Nizolarni hal qilishga yordam:** Agar tomonlar hamkorlikda ishlashni tanlasalar, CAOning nizolarni hal qilish funksiyasi boshlanadi. nizolarni hal qilish jarayoni, odatda, o'zaro kelishuv memorandumini va/yoki tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan asosiy qoidalar asosida tuziladi yoki boshlanadi. U kelishuv bitimiga yoki boshqa o'zaro kelishilgan va maqsadga erishishga ko'maklashadigan mediatsiya qo'llanishi, hamkorlikka oid faktlarni aniqlashi yoki boshqa

⁴ CAOning roli va ishi haqida batafsilroq ma'lumot uchun, iltimos, to'liq amaliy ko'rsatmalarga murojaat qiling: http://www.cao-ombudsman.org/documents/CAOOperationalGuidelines_2013.pdf

kelishilgan yondashuvlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu yondashuvlarning asosiy maqsadi shikoyatda ko'rsatilgan muammolarni, shuningdek shikoyatni baholash yoki nizolarni hal qilish jarayonida aniqlangan boshqa asosli va shikoyat bilan bog'liq masalalarni o'zaro kelishuvga erishishdir.⁵

YOKI

Ishlash standartlarini muvofiqligini baholash/Tekshirish (audit): Agar tomonlar muvofiqlik jarayonini(auditni) tanlasalar, CAO audit funksiyasi IFC/MIGA loyihasining ekologik va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli tekshiruvini IFC/MIGAning loyiha bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha tekshiruvlarini boshlaydi. Baholash muddati maksimal 45 ish kunigacha davom etishi mumkin. Agar tekshiruvga loyiq deb topilsa, CAOning audit funksiyasi IFC/MIGAning Ishlash standartlariga muvofiqligi bo'yicha batafsil tekshiruv olib boradi. Tekshiruv natijalari bo'yicha yakuniy hisobot IFC/MIGA rahbariyatining javoblari bilan ommaga oshkor etiladi.

5 - bosqich: Qabul qilingan qarorlar bajarilishini **nazorat qilish va kuzatish(monitoring)**

6 - bosqich: **CAO ishtirokini tugatish/hulosa chiqarish va ishni yopish**

⁵ Manfaaddor tomonlar kelishilgan muddatda qo'shma jarayon orqali muammolarni hal qila olmaydigan hollarda, CAO nizoni hal qilish funksiyasi birinchi navbatda, manfaaddor tomonlarni muammolarini bartaraf etishda yordam berishga intiladi. Agar bu mumkin bo'lmasa, CAOning nizoni hal qilish guruhi manfaaddor tomonlarga, shu jumladan IFC/MIGA xodimlariga, Jahon banki Guruhining Prezidenti va Boshqaruviga va jamoatchilikka axborot beradi. Bunda CAOning nizoni hal qilish funksiyasi shikoyatni yopib qo'yadi va uni baholash uchun CAO muvofiqlik (auditga) funksiyasiga yuboradi.